

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"  
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
prof. M. Kalonov

"09"

Ro'yxatga olindi №2024/00149



KASBIY MA'NAVIYAT  
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi: Magistratura ta'lim bosqichining barcha  
yo'nalishlar uchun



Fan (modul kodi)	O'quv yili	Semestr	Kreditlar	
KM1403	2024/2025	III	3	
Fan / modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy fan	O'zbek		2	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Kasbiy ma'naviyat	30 soat	60 soat	90
2	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanning maqsadi va vazifalari</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistratura bosqichi talabalariga kasb ma'naviyatining mazmun-mohiyati, bo'lg'usi oliy ta'limda pedagog kadrlar kasbiy ma'naviy qiyofasi, bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviyat sohasini rivojlantirishning yangicha qiyofasi, jahon ma'naviyati va milliy ma'naviyat, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va milliy ma'naviyatning o'ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda kasb ma'naviyatini shakllantirish, bugungi kuni milliy va umum ma'naviyatning ko'rinishi va muammolari haqidagi bilimlarni boyitish.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> –kasb ma'naviyati fani sohasiga oid magistratura zam onaviy talablar asosida har taraflama chuqur bilim berish, ularda umuminsoniydunyoqarashlarini shakllantirish, bag'rikenglik, totuvlik, hamjihatlik,shukronalik,daxldorlik, mas'uliyat, Vatanni sevish va el-yurtni ardoqlash kabi milliy va umum bashariy m a'naviy qadriyatlariga sadoqat ruhini mustahkamlash, m a'naviy ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish, milliy ma'naviyatimiz an'analarigamushabhat tuyg'ularini singdirishdir.</p> <p>“Kasbiy ma'naviyat” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida magistr: -“kasbiy ma'naviyat” tushunchasining mazmun va mohiyati, uning zaruriyati, bugungi kuni ma'naviyat sohasidagi muammolar, yangi ma'naviy qiyofaning shakllanishi va ko'rinishlari, O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida o'z ifodasini topgan ma'naviy qiyofa nazariyasining umummetodologik asoslari haqidagi bilimga;</p> <p>- ma'naviyatning shakllantiruvchi omil va vositalarni mustaqil tahlil</p>			

qilish, milliy ma'naviy merosimiz to'g'risida mukammal ilmiy tasavvurga ega bo'lish va ularni chuqur o'zlashtirish, ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beradigan asosiy mezonlardan ekanligini teran ilmiy anglash, ma'naviyat sohasining iqtisod, siyosat sohalari bilan munosabatlari, ma'naviyat va ruhiyatning o'zaro nisbati, ma'naviyatning din, madaniyat, axloq bilan o'zaro bogliq jihatlari, falsafa va ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligini to'g'ri talqin etish, milliy ma'naviyatimiz an'analarini yosh avlod ongiga singdirishning shakl va usullaridan foydalanish to'g'risidagi ko'nikmaga;

o'zining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyatida ma'naviyat nazariyasi bo'yicha olgan bilimlarini qo'llay olishi, ko'nikmasiga ega bo'lish, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy va umumbashariy ma'naviyatimiz an'analaridan foydalana olish, ta'lim - tarbiya tizimida ma'naviy-m a'rifiy omillarni o'rinli qo'llay olish; milliy ma'naviy fazilatlarini o'quvchi yoshlarga tushuntira olish, o'quvchilarda milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlariga oid tasavvurlarni shakllantira olish, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini yuksaltirishda ma'naviy qadriyatlarga oid tegishli bilimlardan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi lozim

### III. Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlari)

#### Mashg'ulot mazmuni

#### 1-MAVZU: KASBIY MA'NAVIYAT" FANI PREDMETI, MAQSADI, VAZIFASI VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ma'naviyatni ilmiy o'rganish va rivojlantirish bosqichlari. 1991 yildan 2016 yillarga 2017 yildan keyin Harakatlar strategiyasidan boshlanadigan ikkinchi davr.

1989 yilda o'zbek tiliga davlat maqomi berildi, 1990 yilda xalqimizga "Navro'z" bayrami, Qurban hayiti, Ro'za hayiti qaytarildi. Avval nomi qoralanib kelgan ajdodlarimiz shaxsi va faoliyati qayta baholana boshladi.

Ta'lim shasidagi islohotlar O'zbekistonning jahondagi nufuzli universitetlar, BMT, YUNESKO singari xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishi. Milliy tiklanish va o'tish davri. Yangi asoslarda rivojlanish davri. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasi: nazariya va amaliyot.

Ma'naviyatni rivojlantirish konsepsiyasi tub islohotlar nazariyasi doirasida milliy tiklanish va yosh avlodni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash



## **2-MAVZU: SHARQ MUTAFFAKIRLARINING TA'LIM-TARBIYA VA KASB-HUNAR HAQIDAGI QARASHLARI**

Sharq Birinchi va Ikkinchi Renessansi deb nomlangan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ilki yo'nalishi: birinchisi inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, ikkinchisi bu fanlar inson tomonidan taqlid qilib o'rganiladi. Yaqin va O'rta Sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining mahsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi. Bunday ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarining maydonga kelishida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (975-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan.

## **3-MAVZU: KASBIY MA'NAVIYATNING O'ZIGA XOS PRINSIPLARI. KASBIY MA'NAVIYAT VA AXLOQNING O'ZARO ALOQADORLIGI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

"Kasbiy ma'naviyat" tushunchasini tahlil qilish uchun, birinchi navbatda, "kasb", "ma'naviyat", "faoliyat" kabi tushunchalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tushunchalar orasida "madaniyat" tushunchasi muhim o'rin tutadi. Chunki mulkan hodisotlar olamini qamrab olgan va mavhumotning yuksak darajasidagi eng umumiy falsafiy-ijtimoiy tushunchalardan biri hamda ma'naviyat nazariyasi tahlilini to'g'ri yo'nalishga olishi ijtimoiy jarayonlarga xolis baho berishga yaqinlashishni va ijtimoiy hodisalarga munosib ta'sir ko'rsatish yo'llarini topishni anglatadi. Kasbiy faoliyatning boshqa turlarida unga oz bo'lsa-da, o'xshash bo'lgan faoliyat turini uchratish qiyin. Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rnini yuksakligidir.

## **4-MAVZU: OLIMNING IJTIMOY MAS'ULIYATL SHAXS KASBIY MA'NAVIYATIDA KORRUPSIYA, PORAXO'RLIK, MANFAATPARASTLIK KABI SALBIY ILLATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI**

Olimlarga qo'yiladigan malakaviy talablar. Fan «havaskorlik» mashg'uloti bo'lgan davrda u asosan adabiy mehnat bilan bog'liq mavzular bilan cheklangan, keng ko'lamlı va qimmatbaho tadqiqotlarni talab qilmagan. Ammo u xo'jalik faoliyatida amaliy naf ko'rish uchun mablag'lar kiritiladigan ijtimoiy mehnat tarmog'iga aylangach, vaziyat o'zgardi. Tadqiqotlar buyurtmaga muvofiq bajarila boshladi. Ilmiy tadqiqotlarning mavzularini belgilash olimlar ixtiyorida chiqdi. Fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tanlash va ilmiy mehnatga baho berish fandan uzoq odamlar qo'liga tushdi. Bundan eng avvalo fundamental fan jabr ko'rdi, chunki unga ajratiladigan mablag'lar kamaydi, undan kadrlar ketib qola boshladi, uning obro'si pasaydi. Ammo gap shuning o'zidagina emas. Fan tizimi to'raligicha hokimiyat va mablag'larni o'z qo'lida jamlagan odamlar ixtiyoriga o'tdi. Olimlar nimani buyurishsa, shuni bajaradigan yollanma kasb egalari bilan bir qatorga qo'yildilar.

## **5-MAVZU: KASBIY MA'NAVIYAT VA AXLOQDA BAXT MUAMMOSI BOSH MA'NAVIY QADRIYATLAR VA ASOSIY AXLOQIY FAZILATLAR**

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini ular fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z - o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarini o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloqiy madaniyat jamiyat sub'ektlari va ularning munosabatlari bilan ifodalanadi. U quyidagilarni o'z



ichiga oladi: a) jamiyat sub'ektlarining axloqiy ongi madaniyatining belgilari va elementlari; b) xulq-atvor va muloqot madaniyati; v) axloqiy ishlar va faoliyat madaniyati. Axloqiy madaniyat jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti madaniyatining boshqa turlari bilan bog'liq, lekin birinchi navbatda u axloqning antipodlariga; yovuzlik, tengsizlik, adolatsizlik, nomus, nomus va vijdon etishmasligi va boshqa axloqqa qarshi hodisalar.

#### **6-MAVZU: YANGI O'ZBEKISTONDA KASBIY MA'NAVİYAT VA AXLOQIY TARBİYANING DOLZARB MASALALARI**

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha o'quvchilarning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash kerak. Kasbga yo'naltirish - bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o'zini qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olib, turg'un kasb tanlash uchun hayotga endi qadam qo'yayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, ota-ona maslahatlar tizimidir. Insoniyat paydo bo'libdiki u har doim o'zini boqishga, ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirishga harakat qilgan va bozirda ham shu yo'ldan bormoqda. Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo oziq - ovqat, boshpana, kiyim - kechaklarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o'z ehtiyojlariga kerak bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalari paydo bo'lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi va baxtli yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to'plaganlar.

#### **7-MAVZU: TALABA SHAXSINI O'ZINI-O'ZI MA'NAVİY-KASBIY TARBİYALASHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Ijtimoiy hayotda inson muayyan ehtiyoj bilan yashar ekan, pedagogik nuqtai nazardan ehtiyojning o'zi ham shaxs ma'naviyati darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatga ehtiyoj bo'lmasa, u hech qachon rivojlana olmaydi. Shu ma'noda har bir shaxsning ma'naviy olami millat, davlat va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Mamlakat mustaqilligi shu mustaqil yurtda yashovchi fuqaro mustaqilligining milliy

ongu shuuri bilan chambarchas bog'liq. Yuksak ma'naviyatni anglashning pedagogik mohiyati insonparvarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, milliy iftixor tuyg'usi, ona tiliga hurmat va milliy qadriyatlarimizni e'zozlash kabi fazilatlarida o'z e'tirofini topadi. Shunga ko'ra talaba shaxsini o'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalashi, uning nechog'lik o'z kasbining sir-asrorlarini mukammal egallashi asnosida o'z millati va davlati manfaatini himoya qilishi, Vatani xavf ostida qolgudek bo'lsa, uning himoyasi yo'lida qay darajada mardonavorlik ko'rsuta olishi, shu aziz Vatanning farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg'usi uning ma'naviy-kasbiy tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatadi.

#### **III Seminar mashg'ulotlari boyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

1. O'zbekistonda ma'naviyatni ilmiy o'rganish va rivojlantirish bosqichlari
2. Milliy tiklanish va o'tish davri
3. Yangi asoslarda rivojlanish davri
4. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasi: nazariya va amaliyot
5. Jahonim - fanidama'naviyatmasalalari
6. Hozirgi zamon ilm-fanida ma'naviyatning ba'zi sohaları
7. G'arbda ma'naviyat tushunchasi
8. Jahon fanida jamiyat kelajagi haqidagi ayrim bashoratlar
9. Erkin inson shaxsini yuksaltirish ma'naviy tarbiyaning maqsadi
10. Tarbiyada vorisiylik tushunchasi
11. Komillik g'oyalari va erkin inson shaxsi v
12. O'z-o'zini tarbiyalash g'oyalari va mavkuraviy immunitet
13. Mehnattarbiyasikasbma'naviyatiningnegizi
14. Mehnat ma'naviy tarbiya negizi. Istedodni yuzaga chiqarish shart sharoitlari
15. Mehnat va inson kamoloti
16. Kasbga muhabbat tushunchalari
17. Axloqiy tarbiya
18. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi
19. Asl insoniy fazilatlar
20. Erkinlik va mas'uliyat tarbiyasi
21. Xudbinlikning vujudga kelish sabablari
22. Estetik tarbiya
23. Estetik ehtiyojning namoyon bo'lish shakllari
24. Estetik did xususiyatlari. Yuksak estetik did



<p>25. Ommaviy madaniyat va didsizlik muhiti</p> <p>26. Milliy, jamoaviy, shaxsiy manfaatlarni muvozanatga keltirish va uyg'unlashtirish</p> <p>27. Manfaat tushunchasi</p> <p>28. Milliy manfaatlarning namoyon bo'lishi</p> <p>29. Milliy manfaatlarni va milliy g'oya uyg'unligi</p> <p>30. Milliy identlik (ayniyat) va millatlararo munosabatlar madaniyatini yuksaltirish</p> <p>31. Identlik tushunchasi</p> <p>32. Milliy identlik va millatlararo munosabatlar</p> <p>33. Yangi o'zbekistonda millatlararo munosabatlarni shakllantirish g'oyalari va yo'llari</p> <p style="text-align: center;"><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p>1. Jam'iyat, inson va ma'naviyat: m'oddiy va ma'naviy hayot mushtarakligi.</p> <p>2. O'zlikni anglash, milliy o'zlikni anglash tushunchalarining mazmuni va mohiyati.</p> <p>3. Ma'naviyat va o'zlikni anglash.</p> <p>4. Bugungi kunda "Ma'naviyatshunoslik" faniga ehtiyoj.</p> <p>5. Taraqqiyotning o'zbek modelida ma'naviyatning o'limi.</p> <p>6. Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy muhojot sifatidagi mohiyati.</p> <p>7. Mustaqil taraqqiyotning ma'naviy asoslari.</p> <p>8. Ma'naviy muhit ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida.</p> <p>9. Ma'naviyatning vujudga kelishi to'g'risidagi turli nazariyalar va qarashlar.</p> <p>10. Ma'naviyat tarixida mehnatning o'limi.</p> <p>11. Ma'naviyatning vujudga kelish va dastlabki rivojlanish bosqichlari.</p> <p>12. Ma'naviy hayotda diniy va siyosiy mafkura ta'sirining kuchayishi.</p> <p>13. Iqtisodiyot, siyosat va ma'naviyat o'rtasidagi aloqadorlik.</p> <p>14. Ma'naviyatning ijtimoiy turmushning barcha sohalariga ta'siri.</p> <p>15. Demokratiya tushunchasining mohiyati.</p> <p>16. Jamiyat hayotida urf-odatlar, millatlararo va dinlararo munosabatlarning o'limi.</p> <p>17. Sivilizatsiya va madaniyat tushunchalarining mazmuni va mohiyati, ularning ma'naviyat bilan aloqadorligi.</p> <p>18. Ma'naviyat va madaniyat munosabatlari.</p> <p>19. Ommaviy madaniyat - hozirgi zamon sivilizatsiyasining ijtimoiy hayotda</p>
--

<p>voqe bo'lishining, faoliyat ko'rsatishining asosiy shakli.</p> <p>20. G'arb ilmi-fanida ma'naviyat va iqtisodiyot munosabati.</p> <p>21. Ma'naviyat va iqtisodiyot munosabatlari tizimida mehnatning o'limi.</p> <p>22. Sharq va G'arb mutafakkirlarining inson tabiati to'g'risidagi qarashlari</p> <p>23. Tafakkur tushunchasining mohiyati.</p> <p>24. Tafakkur erkinligining inson ma'naviyatiga ta'siri.</p> <p>25. Asotiriy tafakkur va ibtidoiy jam'iyat ma'naviyati.</p> <p>26. An'anaviy tafakkur va agrar jam'iyat ma'naviyati.</p> <p>27. E'tiqod shaxs dunyoqarashi va ma'naviyati yadrosi sifatida.</p> <p>28. Dunyoviy va diniy ilmlar.</p> <p>29. E'tiqod tushunchasini tashkil etuvchi omillar, ularning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati.</p>
<p><b>3 V. Ta'lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalar</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Fanni o'zlashtirish natijasida magistrlar "Kasbiy ma'naviyat" fanining maqsadi, vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari, O'zbekistonda ma'naviyatning rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</li> <li>"Kasbiy ma'naviyat" fani shakllanishining taraqqiyot bosqichlari, xalqimizning tarixan boy madaniy, ma'naviy merosi, ma'naviy-ma'rifiy takomil bosqichlari, milliy ma'naviyatimizning umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unligi, uning o'ziga xos betakror xususiyatlari, inson va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish yo'llarini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</li> <li>Kasbiy ma'naviyat" fanini o'zlashtirish davomida magistratura mutaxassisligida tahsil oluvchi magistrantlar o'z mutaxassisligi bo'yicha mustaqil fikrlay olish, hamkasblari orasida muomala odobi, kasbiy etikasi, estetikasi hamda shaxsiy sifatleri rivojlantiriladi shuningdek, magistrantlarni ilmiy- pedagogik va kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda mazkur fan sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanining fundamental va metodologik fan sifatidagi ahamiyati shundaki, bunda magistrantlar olgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda tadbiiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka);</li> </ul>



4	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <p>ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar;</p> <p>seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</p> <p>guruhlarda ishlash;</p> <p>taqdimotlarni qilish;</p> <p>individual loyihalar; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uhun loyihalar.</p>
5	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliq nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish</p>
6	<p><b>Foydalaniladigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar, elektron ta'lim resurslari hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izoxli lug'ati. - T.: Gafur Gulom nashriyoti, 2009 yil.</li> <li>2. Jumaniyozov X.S., Sobirova M .A., Nigmanova U.B. Globalashuv asoslari.Monografiya. - T.: Navro'z, 2015.</li> <li>3. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. 1-2-kitob.T.:Ma'naviyat, 2018.</li> <li>4. Sobirova M., Xoliqov ye. Etnom adaniyat. -T .: " Innovatsiya-Ziyo", 2019</li> <li>5. T.Xudayshukurov, I.Shukurov, Z.Mamarasukov, d.Mirzaaxmadov. Kasbiy etika va etiket.Toshkent. "Iqtisod-Moliya" -2021.</li> <li>6. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. - Toshkent: O'AJBNT, 2003.</li> <li>7. Abdukarimov H.A. Abdurazzoqov H.A. Talaba-yoshlarni kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash texnologiyasi. Ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini tatbiq etishning zamonaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy an-jumani materiallarining to'plami. 2009 yil 4 dekabr. - Guliston, 2009. - B. 95-96.</li> <li>8. Abdukarimov H.A. Milliy tarbiya, kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va o'zbekona xarakter xususiyatlari //Uzluksiz ta'lim. - Tosh</li> </ol>

<p>Zaysev A.G., Zaysev G.K. Valeologicheskaya gotovnost k voinskoy slujbe// Pedagogika. 2006. № 6 S. 62-69.</p> <p>9. Abdulla Avloniy, Tanlangan asarlar. 2 tomlik. T.2. -Toshkent: Ma'naviyat, 1998.</p> <p>10. Gularam Kamilovna Masharipova, Tamara Jo'rayevna Xo'janova. Kasbiy ma'naviyat. "Fan ziyosi" nashriyoti Toshkent - 2022.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2023 yil. (tegish li moddalar)</li> <li>2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: M a'naviyat, 2008.</li> <li>3. MirziyoyevSh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilanbirga quramiz" Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2017-yil.</li> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent, 1-jild, «O'zbekiston» nashriyoti, 2017-yil.</li> <li>5. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" Toshkent, 2-jild, «O'zbekiston» nashriyoti, 2018-yil.</li> <li>6. Mirziyoyev Sh.M. "Niyati ulug' xalqning ishi ulug', hayoti yorug' va kelajagi furovon bol'adi" Toshkent, 3-jild, «O'zbekiston» nashriyoti, 2019-yil.</li> <li>7. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" Toshkent, 4-jild, «O'zbekiston» nashriyoti, 2020-yil.</li> <li>8. Fromm E. Insonning hozirgi xolati. //Jaxon adabiyoti, 2000, mart.</li> <li>9. Ismailova 3.I. Ta'limiy ish metodikasi. - T.: 2003.</li> <li>10. Aristotel Poetika, Axlaki kabir.M .M axmudov tarjimai. - T.:YAngi asr avlodi, 2004</li> <li>11. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. -T .: Turon-ikbol nashriyoti, 2006.</li> <li>12. E. F romm. Zdorovoye obsh yestvo. - M.: Akt, 2006.</li> <li>13. Zamonaviy dare. / Mas'ul muxarrir SH. SHomansurov - T.: A. Avloniy nomidagi xalk ta'limi xodimlarini kuyta tayyorlash va mapakasini oshirish markaziy instituta, 2007.</li> <li>14. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-ukituvchilari uchun amapiy tavsiyalar). -T .: "I ste'dod" jamgarmasi, 2009. - 160 b.</li> <li>15. Alisher Navoiy. Tula asarlar toplami. 6-jild. Xamsa. "Xayrat ul-abror". "Farxod va SHirin". - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2011.</li> <li>16. Kosimov B. Uygongan millat ma'rifati. -T .: "Ma'naviyat", 2011.</li> <li>17. Xolikov I., Sobirova M., Masharipova G. "Ma'naviyat asoslari" fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ukitish. - T.: TDP, 2013.</li> <li>18. Voxidov E. Suz latofati. - T.: "Uzbekiston", 2014.</li> <li>19. Starr F. Markaziy Osiyoning yangidan kashf etilishi. "Jaxon adabiyoti" 2014, may.</li> </ol>
--

	<p>20. Ritveladze E. Ustozlarning ustozlari. "Ma'naviy xayot", 2014 №2</p> <p>21. Eynshieyn. A. Din va fan. Fan va din. "Tafakkur" 2014-15</p> <p style="text-align: center;"><b>Internet saytlari</b></p> <p>20. <a href="http://www.tsil.uz">http://www.tsil.uz</a></p> <p>21. <a href="http://www.norm.uz">http://www.norm.uz</a></p> <p>22. <a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a></p> <p>23. <a href="http://www.lex.uz">http://www.lex.uz</a></p> <p>24. <a href="http://www.lawbook.ru">http://www.lawbook.ru</a></p> <p>25. <a href="http://www.lawlibrarv.ru">http://www.lawlibrarv.ru</a></p>
7	<p>Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil "06" - "09" dagi qarori bilan tasdiqlangan</p>
8	<p>Fan / modul uchun ma'sul(lar):</p> <p>N.M.Egamberdiyeva – Navoiy davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi v.b. dotsenti <i>N.M.Egamberdiyeva</i></p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>A.Erkayev – Qarshi Davlat Universiteti professori, f.f.d.</p> <p>R.Rajabov – NavDPI professori, f.f.n.</p>

Kafedra mudiri *Abuyev H.O.*

Abuyev H.O

№ 2024/2.05.